INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

QURILISH KORXONALARNING FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Ernazarov N.E.

PhD, dots., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

Rashidov Sh.E

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti MPF-s-124U guruh magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish korxonalari faoliyati samaradorligining iqtisodiy mazmuni, uni baholash ko‘rsatkichlari hamda samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, samara va samaradorlik tushunchalarining o‘zaro farqi yoritilib, qurilish sohasida samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish korxonalari, samaradorlik, harajatlar, mehnat unumdorligi, rentabellik, investitsiya, loyiha boshqaruvi.

Аннотация.В данной статье проанализированы экономическое содержание эффективности деятельности строительных предприятий, показатели её оценки, а также возможности повышения эффективности. Кроме того, раскрыта разница между понятиями «эффект» и «эффективность», а также разработаны научно-практические предложения, направленные на повышение эффективности в строительной отрасли.

Ключевые слова: строительные предприятия, эффективность, затраты, производительность труда, рентабельность, инвестиции, управление проектами.

Abstract. This article analyzes the economic essence of the efficiency of construction enterprises, the indicators for its evaluation, and the opportunities for improving efficiency. In addition, the difference between the concepts of “effect” and “efficiency” is clarified, and scientific and practical recommendations aimed at improving efficiency in the construction sector are developed.

Keywords: construction enterprises, efficiency, costs, labor productivity, profitability, investment, project management.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qurilish korxonalari faoliyatining samaradorligi nafaqat ularning moliyaviy barqarorligiga, balki butun iqtisodiyot rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli qurilish korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham«tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish»kabi ustuvor vazifalar belgilangan»[1]. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi ishlab chiqarish qurilish korxonalari faoliyatini moliyaviy samaradorlik mexanizmlarini takomillashtirish ni taqazo etadi.

[1] 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zR Qonunchilik hujjatlari to‘plami. 2017 yil. 6-son, 70-modda.

Qurilish korxonalarida samaradorlik – bu qurilish ishlari natijalari (ob'ektlar hajmi, sifati, foyda) bilan sarflangan resurslar (moliyaviy, mehnat, material va vaqt) o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Samaradorlikni ta'minlash qurilish jarayonining barcha bosqichlarida – loyihalash, moliyalashtirish, qurilish va ekspluatatsiyaga topshirish jarayonlarida muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi2.

Yangi texnika va texnologiyalarni - joriy qilishni ta'minlash, shnlab chiqarishga mehnatni ilmiy tashkil etishning progressiv shakllarini joriy qilish. uni me'yorlashni takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, tartib-intizomga zrishish- mehnat jamoasining barqarorligani ta'minlash lozim3.

Qurilish korxonalarida samaradorlikni oshirish bilan bog'liq masalalar majmuasini jiddiy anglash va tadqiq qilishni talab etadi. Kurilish tashkilotlarida boshqarishning asosiy konsepsiyasiga asoslangan boshkaruv tizimlarining samarali amal qilishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy jihatdan "samara" qurilish ishlari natijasida olingan ijobiy ko'rsatkichlar (foyda, daromad, ob'ektlarni o'z vaqtida topshirish)ni anglatsa, "samaradorlik" esa ushbu natijalarga qanday resurslar evaziga erishilganini ko'rsatadi. Shu bois qurilish sohasida samaradorlik kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi.

Qurilish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish uchun quyidagi asosiy imkoniyatlar mavjud:

-zamonaviy qurilish texnologiyalarini joriy etish orqali qurilish jarayonini tezlashtirish va harajatlarni kamaytirish mumkin;

-qurilish loyihalarini samarali rejalashtirish, muddatlar va byudjetni qat'iy nazorat qilish orqali ortiqcha harajatlar va kechikishlarni oldini olish mumkin;

-ishchi kuchining malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va mehnatni ilmiy tashkil etish qurilish ishlarining sifat va tezligini oshiradi;

-qurilish materiallaridan tejamkorlik bilan foydalanish, logistika tizimini yaxshilash va yo'qotishlarni kamaytirish muhim ahamiyatga ega;

-qurilish jarayonida ortiqcha harajatlarni qisqartirish, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali umumiy tannarxni pasaytirish mumkin.

-qurilish ishlarining sifati yuqori bo'lishi korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi va qo'shimcha harajatlarni kamaytiradi.

Moliyaviy samaradorlik darajasi yuqori bo'lgan qurilish korxonalari bozor sharoitida bir qator ustunliklarga ega bo'ladi. Avvalo, bunday korxonalar o'z xarajatlarini oqilona boshqarish, resurslardan samarali foydalanish va ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish orqali mahsulot (qurilish ishlari) tannarxini pasaytirishga erishadi. Natijada ular bozorda raqobatchilarga nisbatan maqbulroq narx taklif qila oladi.

Qurilish sohasida moliyalashtirishning 15 foizlik ikki bosqichli avans to'lovlari, 65 foizlik joriy moliyalashtirish hamda 5 foizlik kechiktirilgan (kafolat muddatiga bog'langan) to'lovdan iborat.

Iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan, bunday moliyalashtirish sxemasi pul oqimlarini vaqt bo'yicha taqsimlash orqali loyihaning moliyaviy samaradorligini baholash imkonini beradi.

2 Б.А. Абдукаримов., А.Н. Жабриев., И.Р Зугуров ва бошқалар. "Корхона иқтисодиёти"-Т.:2008й. 110 бет.

3 Баринов В.А. Организационное проектирование. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 104 бет.

Xususan, loyihadagi pul oqimlarini diskontlash orqali ularning joriy qiymatini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$NPV = \sum_{t=0}^{n} = \frac{\text{CFt}}{(1+r)^t}$$

- CFt — t-davrdagi pul oqimi,
- r — diskont stavkasi,
- n — loyiha davomiyligi.

Mazkur loyihada avans to‘lovlarining mavjudligi pudratchi uchun moliyaviy yukni kamaytiradi va ishlarni tez boshlash imkonini beradi. Shu bilan birga, joriy moliyalashtirishning oyma-oy taqsimlanishi pul oqimlarining barqarorligini ta’minlaydi. Diskontlash nuqtai nazaridan qaralganda, loyihaning asosiy qismi keyingi oylarga to‘g‘ri kelgani sababli, ularning joriy qiymati ma’lum darajada kamayadi, bu esa buyurtmachi uchun iqtisodiy jihatdan ma’lum ustunlik yaratadi.

Loyihani baholashda ichki daromad me’yori (IRR) ko‘rsatkichi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u quyidagi shart orqali aniqlanadi:

$$0 = \sum_{t=0}^{n} = \frac{\text{CFt}}{(1+IRR)^t}$$

Loyihani baholashda ichki daromad me’yor ko‘rsatkichi loyihaning investitsion jozibadorligini baholash imkonini beradi. Davlat buyurtmasi doirasidagi mazkur loyihada to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromad olish ko‘zda tutilmagan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Davlat byudjeti (respublika va mahalliy byudjetlar) mablag‘larining afzalligi barqaror va kafolatlangan manba, davlat strategik sohalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Kamchiligi esa, moliyalashtirish hajmi ko‘pincha cheklangan bo‘ladi, byurokratik jarayonlar sekinlik keltiradi. Samaradorlik darajasi koronalarda uzoq muddatli innovatsion loyihalar uchun foydali, ammo tez o‘sishga to‘siq bo‘lishi mumkin.

Maxsus jamg‘armalar moliyalashtirish manbalarining kamchiligi vablag‘lar ko‘p hollarda yetarli emas, tashkiliy va boshqaruv masalalari mavjud. Samaradorlik darajasi, agar korxona yaxshi boshqarilsa – risklarni qoplash, startaplarni qo‘llash uchun ayni muddaodir. Qurilish sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar va iqtisodiy samaradorlik elementlari sifatida chora-tadbir yo‘nalishi, amalga oshirish mexanizmi, samaradorlik elementlari va iqtisodiy natijadorlik muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa va takliflar.

Innovatsion subyektlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishning afzalligi yerkin foydalaniladi, qaror qabul qilish tezligi yuqoridir. Kamchiligi esa, mablag‘ yetishmasligi muammo bo‘lishi mumkin, ayniqsa startap loyixalarni moliyalashtirish borasida. Samaradorlik

darajasini o‘rta, lekin faqat kuchli moliyaviy bazaga ega subyektlar uchun samaralidir. Qurilish korxonalarni rivojlantirish qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga bo`yicha quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish zarur:

-imtiyozli kreditlar, lizing xizmatlari, kafolat jamg‘armalari hisobidan qurilish korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash zarur;

-qurilish ob’ektlarini **raqamli model asosida loyihalash** texnologiyasi va elektron tender tizimlari joriy etilishini rag‘batlantirish lozim;

-mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarga soliq va bojxona imtiyozlari berish, innovatsion materiallar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish lozim.

-energiya tejamkor binolar va qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini kenroq joriy qilish lozim. Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Masalan, foydaning o‘sishi, jamg‘armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni

2. Б.А. Абдукаримов., А.Н. Жабриев., И.Р Зугуров ва бошқалар. “Корхона иқтисодиёти”-Т.:2008й. 110 бет.

3. Баринов В.А. Организационное проектирование. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 104 бет.

4. Suyunbek o‘g‘li, Q. Y., & Elamonovich, E. N. (2025). FINANCIAL INCENTIVES FOR SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *The Role of Green Technologies and Sustainable Development in Advancing Regional Economies*, *1*.

5. ELAMONOVICH, E. N. Module for Assessment of the State of Local Budgets. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, *7*(11), 46-50.